Ilmiy hamkorlik: xalqaro onlayn ilmiy seminar

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Materialshunoslik instituti tashabbusi bilan "Katta Quyosh qurilmasi (O’zbekiston)da uglerod tolasini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusida xalqaro onlayn seminar bo’lib o’tdi.

Seminarda, Materialshunoslik instituti va Drezden texnika universiteti (Germaniya)ning olimlari, doktorantlari, yosh mutaxassislari, shuningdek, "O’zkimyosanoat" AJ vakillari ishtirok etdilar.

Seminarning asosiy maqsadi O’zbekistondagi Katta Quyosh qurilmasi negizida yuqori mujassamlashgan Quyosh nurlanishidan foydalangan holda uglerod tolasini ishlab chiqarishning innovatsion usulini muhokama qilish edi.

Uglerod kompozitsiyalari aerokosmik sohada, shamol energetikasi, avtomobilsozlik, dengiz, neft va gaz sanoati kabi yuqori texnologiyali sohalarda keng qo’llaniladi. Murakkab uglerod tolali kompozitsiyalarining narxi metallarga nisbatan ancha qimmat. Uglerod tolasining jahon bozori 2019-yilda 4,7 milliard dollardan 2029-yilgacha 13,3 milliard dollarga o’sishi taxmin qilinmoqda. Aerokosmik va mudofaa sanoati hamda avtomobilsozlik va shamol energetikasi sanoatining ortib borayotgan talabi tufayli bozorda ehtiyoj ortib bormoqda.

Seminarda professor Ralf Xeger (Germaniya) muhokamaga taqdim etgan Katta Quyosh qurilmasini sanoat usulida uglerod tolasini olish uchun ishlatishda yangicha yondashuv va bu jarayonga tashqi investorlarni jalb qilish taklifi katta qiziqish uyg’otdi. Tavsiya etilgan yondashuv Katta Quyosh qurilmasida sintez qilinadigan uglerod tolasini tannarxining pasayishiga olib keladi va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligi ortadi.

O’zR FA Materialshunoslik instituti olimlari geliostatlar uchun aks ettiruvchi yuzalarni nometall yuza bilan qoplash bo’yicha innovatsion usulni taklif qilishdi. Taklif nemis hamkorlarda qiziqish uyg’otdi va kengroq muhokamalar uchun qo’shimcha ma’lumot so’raldi. Ushbu texnologiya aks ettiruvchi komponent bilan birgalikda himoya qoplamasini bir vaqtda qo’llashga asoslangan.

Muhokamalar natijasida seminar ishtirokchilari Katta Quyosh qurilmasi asosida ishlab chiqarilgan uglerodli materiallarni olish va tadqiq etish sohasida hamkorlikni davom ettirish to’g’risida kelishib oldilar. Germaniya tomoni Jahon Banki, Germaniyaning Federal ta’lim va ilmiy tadqiqotlar vazirligi (BMBF)ning innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlash imkoniyatlaridan foydalanishni taklif qildi va shuningdek, "O’zkimyosanoat" AJga qo’shma loyihani amalga oshirishni qo’llab-quvvatlash niyati uchun minnatdorlik bildirdi.